

MUHAMMAD YUSUFNING “ONAMGA XAT” SHE’RIDA RITORIK MUNOSABAT

Matyakupov Sa’dulla Gaipovich, Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori

RHETORICAL ATTITUDE IN MUHAMMAD YUSUF’S POEM “ONAMGA XAT” (“LETTER TO MY MOTHER”)

Matyakupov Sa’dulla Gaipovich, associate professor of Nukus State Pedagogical Institute, doctor of philology

РИТОРИЧЕСКОЕ ОТНОШЕНИЕ В СТИХОТВОРЕНИИ МУХАММАДА ЮСУФА “ОНАМГА ХАТ” (“ПИСЬМО МАТЕРИ”)

Матякупов Саъдулла Гаипович, доцент Нукусского государственного педагогического института, доктор филологических наук

Annotatsiya: Maqolada she’riy nutqda ritorik munosabat hosil qilish usullari, dialogning vujudga kelish omillari, tasvir va ifoda muqobilligi Muhammad Yusufning “Onamga xat” she’ri misolida nazariy umumlashtiriladi. Unda hayotni poetik tadqiq etish jarayonida murojaat shakli vazifadoshligi, monolog va ruhiy kechinma tadriji tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: badiiy nutq, ritorik munosabat, dialog, lirik subyekt, badiiy mahorat.

Abstract: The article theoretically summarizes the methods of creating a rhetorical setting in poetic speech, the factors of creating dialogue, the alternativeness of image and expressiveness using the example of Muhammad Yusuf’s poem “Onamga xat” (“Letter to my mother”). In it, in the process of poetic exploration of life, the function of the form of address, monologue and the experience of spiritual experience is analyzed.

Key words: artistic speech, rhetorical attitude, dialogue, lyrical subject, artistic skill.

Аннотация: В статье теоретически обобщаются методы создания риторической установки в поэтической речи, факторы создания диалога, альтернативность образа и выразительности на примере стихотворения Мухаммада Юсуфа “Онамга хат” (“Письмо матери”). В ней в процессе поэтического исследования жизни анализируются функция формы обращения, монолога и опыта духовного опыта.

Ключевые слова: художественная речь, риторическая установка, диалог, лирическая тема, художественное мастерство.



<https://orcid.org/0009-0005-2753-5720>

e-mail:

sadulla.yoqub@gmail.com

KIRISH. Ma'lumki, lirik nutqda grammatik nutq qurilishi dramatik va epik nutqdagi grammatik qurilishga nisbatan tubdan farq qiladi. Epik va dramatik nutqda gapning grammatik qurilishi nisbiy ma'noda bo'lsa-da jonli nutqqa yoki tilning grammatik qoidalariga muvofiqroq bo'ladi. Unda ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar o'z joyida bo'lishi talab qilinadi. Jahon adabiyotshunosligida she'r strukturasi shakllanishining ichki va tashqi omillari, taraqqiyot tamoyillari va poetikasi bo'yicha boy tajriba to'plangan. Dialog qo'llanmasi tasvir usuli sifatida paydo bo'lishi, takomili, odatda, Sharq mumtoz adabiyoti, shuningdek, jahon, xususan, rus adabiyoti ijodiy ta'siri bilan bog'liqligi e'tirof etiladi. Ma'lumki, she'r – tuyg'uning voqe bo'lishi bilan birga shoir va o'quvchi ko'ngil kechinmalari, manfaat-ehtiyojlari, hayotiy kuzatishlari, tajribalari, orzu-istaklari hamda anglangan va anglanmagan mohiyat rishtalarini birlashtirib turadigan ilohiy xilqat. She'r – shoir qalbidan inson ruhiyatiga ko'chadigan o'ziga xos dard, undan sizib chiqayotgan ohang umidlarni uyg'otadi, hissiy idrokka dalda beradi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Adabiyotshunoslik nazariyasida tushuncha, dunyoqarash va aloqa yaxlitligini anglash, falsafa, ruhiyat hamda tafakkurni bog'lovchi nutq shaklini belgilash, munosabat maqsadi va vazifasini aniqlash, badiiy muloqot asosiy yo'nalishlarini ochib berish hamda rivoya texnikasi estetik mohiyatini yoritish bo'yicha boy tajriba to'plangan. Binobarin, lirikada dialog va uning badiiy vazifasini asoslash, muammoni nazariy qonuniyatlar asnosida baholash va badiiy tafakkur mohiyatini oydinlashtirish muayyan ilmiy ehtiyoj zaruratini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, lirik ifodada so'zga yuklatilgan ritorik munosabat tadqiq sahniga chiqadi. Matndagi nozik tuyg'u muallif shaxsiyati va she'r ruhiyatini bir-biriga muqobillashtiradi. Aynan badiiy nutqda tasavvur va g'oya raqobatga kirishuvini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Poetik tushunchada ma'no tarmoqlanishi tahlil malakasi ustuvorlashuviga zamin hozirlaydi. Bu jarayonda ijodiy hamkorlik qadriyat, an'ana va madaniyatni jiplashtirib, adabiy talqin ijtimoiy voqelik hamda badiiy shartlilikni o'zaro muvofiqlashtiradi. Matndagi qiymat, nuqtayi nazar va idrok she'riy yo'sin tabiatini belgilaydi. Lug'aviy birlik o'rnini

egallaydigan matn ritorik munosabat hosil qiladi. Unda kuzatish va mushohada qorishgan holda ijodkorning dialoglashgan tuyg'ularini yuzaga chiqaradi.

Tadqiqotni amalga oshirish. She'riyatda shoir kechinmalari orqali qilinayotgan murojaat nihoyatda keng qamrovli bo'lib, unda ijodkor yoki lirik qahramon ruhiyatiga muvofiq o'lchov asosiy mezonga aylanadi. Unda murojaat ba'zan tasdiq, ba'zan inkor, shuningdek, xavotir, hayrat, quvonch, alam, afsus-nadomat kabilarni anglatishi mumkin. Ta'kidlash kerakki, she'riyatda dialogik talqin alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, ijodkor o'z tafakkurida borliq va inson bilan, hayvonot-u nabo'tot bilan suhbat quradi. Olamga odam bo'lib, odamga olam bo'lib murojaat qiladi. Mazkur ifoda usuli badiiy ijodda azaldan mavjud bo'lib, savol-javob tariqasida aks ettirilgani ma'lum.

Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Onamga xat" she'ri olti banddan iborat. Unda cheksiz sog'inch yuragini o'rtagan farzand ona siymosi bilan ritorik munosabatga kirishadi. "Tunlari charog'on shunday shaharda" ham yolg'iz lirik subyekt hayot va xayol ziddiyatidan iztirob chekadi. Orzularga hamroh ko'ngil izhori dag'al voqelik silsilasida sinadi!

*Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat:
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,
Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat [3. 57].*

Ruhiy holatning aniq manzarasi hamda ifoda mantig'i soddaligi she'r samimiyatini ta'minlaydi. Muallif dil rozini oshkor etish yordamida kitobxon qalbida hamdardlik uyg'otadi. Shuning uchun ham aldov va riyodan xoli satrlar o'quvchini ishontiradi, murojaat zamiriga singib ketgan savollar kitobxonni ham o'yg'a toldiradi. Zotan, "Ichki dunyosi boy ko'ngil kishilariga yashash hamisha qiyin kechadi. Sababi bunday shaxs voqelikning hech qanday ishtirokisiz ham doim qarama-qarshi ikki kuch: ruh va tana o'rtasidagi kurash og'ushida kun kechirishga mahkum. Ruhiyat, ko'ngil odamni yuksaklarga chorlasa, tana uni yerga tortib, nafsning istaklarini qondirishga undaydi" [2.306].

Chinakam tuyg'u sathidan chiqqan, ezgulik va go'zallikka burkangan misralar har qanday g'araz hamda manfaatdan yuksak turuvchi nozik sezgilarni uyg'otadi. She'r ritorikasi, birinchidan, hayotiy

vaziyatni oydinlashtirsa, ikkinchidan, muloqot ishtirokchilari nuqtayi nazarini keskinlashtiradi, uchinchidan esa, badiiy axborotning yo'naltirilganlik darajasini tavsiflaydi, to'rtinchidan, tahlil va talqinning o'rin almashinuv jarayonini markaziy nuqtaga olib chiqadi:

*Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:
Men – zangor yaylovda olis, bepoyon,
Uyuridan ajrab qolgan qulunman... [3. 57]*

Lirik qahramon tomonidan g'oyat o'ziga xos sharhlangan ruhiy holat muallif pozitsiyasini belgilab beradi. Maqsad va vazifa nisbati esa tasvirdagi manzaradan harakatga o'tishga zamin hozirlaydi. "Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon" dard lirik qahramon "Uyuridan ajrab qolgan qulunday" bo'zlashiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ichki nutq qo'llangan tashbehdan tugallanmagan ifoda munosabatini hosil qilishga yo'naltiriladi. Aniqrog'i, matn darajasidan muallif tanloviga o'tish monologik tafakkur mutanosibligini vujudga keltiradi. Dialogik talqinda "San'atkorning san'ati shundaki, u har bir so'z, holatdagi ma'nolarni bus-butun qamrab olishga so'zning ich-ichiga, moyasiga kirib borishga intiladi"[4.44]. Mazkur vaziyatda so'z ruhiy holat va poetik g'oya bilan aloqaga kirishadi. She'rda muallif tinglovchi sifatida parda ortidagi ona timsolini tanlaydi. Tasdiqni inkor qilish usuli ritorik munosabat ustuvorlashuviga zamin yaratadi. Adabiy talqinda shoir adresat hamda adresant orasida tenglikni saqlamaydi, balki, tinglovchi munosabatini so'zlovchi konsepsiyasiga bo'ysundiradi:

*Men sizni o'ylayman shom-u saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmayman,
Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman [3. 57].*

She'r jonli muloqot asosiga qurilgan, suhbatdoshga bevosita va bilvosita murojaat sathida mushohada goh kuchayadi, ba'zan esa ziddiyatni keskinlashtiradi. Savol, ilinj, inkor, tasdiq va munozara dialoglashgan mohiyat va uning sintezi – monolog matn strukturasi boshqaruvga yo'l ochadi. Til germeneytik mohiyati esa muloqot shaklini tavsiflaydi.

Ta'kidlash kerakki, "Lirik kechinmada fikr va hissiyot qorishiq yashaydi. Bugina emas, ular bir-birining mag'iz-mag'iziga shunday singib ketadiki, ajratib ko'rishning iloji bo'lmay qoladi. Bu ajralmas birlik – butunlik lirik kechinmaning mohiyatini

tashkil etadi. Ammo takomildagi lirik kechinmaning yuzaga chiqishi uchun yana bir nima talab etiladi. Biz – o'quvchi kechinma shaklida berilgan ehtirosli fikr (yoki fikriy ehtiros)ning shakllanish usuli, rivojlanish jarayonini kuzatib borishimiz shart. Ana shu holda kechinma – obraz yaxlit ta'sirchan holda yuzaga chiqadi" [1. 92-93]. Shu ma'noda, yuqoridagi bandning birinchi misrasida iqrar vaziyatni oydinlashtiradi, ikkinchi misrada tasdiq va inkor ziddiyati tasavvurni tiniqlashtiradi, uchinchi va to'rtinchi misralar qarshilantirish usuli dinamikasini belgilaydi. So'zlovchi va tinglovchi ichki aloqasi olam sir-sinoatini anglashda hayratga tushgan lirik qahramonning ruhiy holatini tayin etadi. Unda adresatga yo'naltirilgan murojaatda lirik subyekt xarakteri namoyon bo'ladi. Muloqot shaklida ko'ngil va ruhiyat o'zaro aloqaga kirishadi. Poetik tasavvurda paydo bo'lgan manzarada adabiy talqin kommunikatsiyasi hal qiluvchi vazifani bajaradi. Unda ikki jihat, ya'ni adresat maqomi va adresantga munosabat birlashadi. So'zning estetik quvvati va ma'no-mohiyati dialogning ijodiy mustaqilligini ta'minlaydi. Badiiy amaliyot lug'aviy birlik shakl va uslubda qayta idrok etiladi. Nutqiy xulq-atvor barqarorligi lirik qahramon qiyofasini oydinlashtiradi.

Zero, "Badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari uni amaliy nutq – kundalik muloqot amalga oshiriladigan nutq bilan qiyoslaganda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Amaliy nutq uchun muhimi – muayyan informatsiyani yetkazish, uning qanday yetkazilishi muhim emas. Badiiy nutqda esa, aksincha, o'sha informatsiyaning qanday yetkazilishi ham g'oyat muhim, unda ifodaga e'tibor ustuvorlik qiladi. Shu bois badiiy nutq tasvir vositasigina emas, ayni paytda tasvir predmeti ham sanaladi. Amaliy nutq axborot-kommunikativ funksiyani, badiiy nutq esa badiiy-kommunikativ, aniqroq aytsak, badiiy muloqot asosida estetik funksiyani bajaradi"[5.241]. Ko'rinadiki, she'riyatda muayyan shoir ijodida ichki muloqotda kamolot pog'onalarini axtarayotgan inson ruhiy kechinmasi sharhlanadi. Kuzatiladiki, she'riyatda adabiy tafakkur kategoriyasi sifatida nutq tiplari uslub va vazifa jiplashuvini ta'minlaydi. Muallif, matn va kitobxon o'zaro aloqasi chuqur idrokni taqozo etadi. Badiiy matnni idrok etishda xususiylikdan umumiylikka ko'chish usuli qulayligi qadriyat mezonlarini asosiy o'ringa olib chiqadi. Mazkur jarayonda lirik subyekt tomonidan ilgari

surilgan badiiy g'oya o'zga (o'quvchi) tomonidan to'liq o'zlashtirilgani holda ma'no-mohiyati va aniqligi ikki tomonni birlashtirishga xizmat qiladi. Ayni murojaat shaklida muallif va kitobxon manfaatlari uyg'unlashgan holda poetik idrok hamda adabiy zavq sintezi masalani yanada konkretlashtiradi.

XULOSA. Umuman, Muhammad Yusufning "Onamga xat" she'ri badiiy kommunikatsiya asosiga qurilgan. Unda ritorik munosabatga singdirilgan mushohada umumlashmasi tasavvurni aniqlashtirish imkonini beradi. Rivoya texnikasida ijodiy niyatdan poetik vazifadoshlikka o'tish taomili ustuvorligini hisobga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shoir inson hayoti ziddiyatlarini ona shaxsiga murojaat qatiga singdirib yuboradi. Aslida muloqot shakli bir tomonlama yo'nalish xarakteriga ega bo'lib, lirik subyekt o'z hayotiy mushohadasini tasdiqlashga intiladi. Ona siyмосi joriy sathda

estetik a'mol vazifasini o'taydi. Muallif aksar o'rinlarda tinglovchi maqomi fenomenini tadqiq sahniga chiqaradi. Ilohiy tuyg'u so'zga ko'chirilgan mohiyati badiiy nutq malakasini tavsiflaydi, unda tasvir va ifoda sintezi ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жамол Камол. Шеър санъати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.
2. Йўлдошев Қ. Очқич сўз. – Тошкент: Тафаккур, 2019.
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: Шарқ нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2007.
4. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
5. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Навоий университети, 2018.

